



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-iyul*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 76-225-65-74*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 118 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 046 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyul oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 12 046,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 108,8 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 383,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 116,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 662,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 508,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 117,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	12046,3	108,8
Termiz sh.	2217,9	108,0
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	512,3	112,6
Angor	591,0	106,8
Bandixon	187,9	110,6
Boysun	499,3	109,2
Muzrabot	533,8	111,6
Denov	2557,0	106,7
Jarqo'rg'on	670,5	107,5
Qumqo'rg'on	494,7	111,8
Qiziriq	533,3	110,5
Sariosiyo	447,3	112,2
Termiz	241,7	110,9
Uzun	566,4	111,6
Sherobod	726,4	108,7
Sho'rchi	1266,9	108,7

2024-yilning yanvar-iyul oyida 2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan viloyatning Oltinsoy (112,6 %), Sariosiyo (112,2 %) va Qumqo'rg'on (111,8 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyul)




So'ngi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023-yil, 2024-yil yanvar-iyul oylari)




2024-yilning yanvar-iyul oyida o'sish sur'ati **108,8 %** ni tashkil qildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 21,2 % bilan 2 557,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,6 % bilan 187,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-iyul oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 11 662,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 8,6 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,8 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 16,1 % ga oshdi va 383,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,2 % ulushiga to'g'ri keldi.



112,0

Termiz

112,5

Bandixon

114,5

Qumqo'rg'on

114,9

Muzrabot

115,4

Oltinsoy

116,7

Sariosiyo

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

105,1

Bandixon

110,6

Oltinsoy

112,3

Termiz

115,2

Muzrabot

123,4

Qumqo'rg'on


129,7

Sho'rchi

190,3

Termiz sh.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,5 %), Boysun (99,4 %) va Angor (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 3,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (6,4 %), Denov (5,4 %), Sherobod (2,6 %) va Jarqo'rg'on (2,5 %) tumanlarida kuzatildi.

3,2 %

96,8 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Termiz sh	10 925,5	Termiz	2 837,3
Oltinsoy	2 644,7	Uzun	3 000,1
Angor	4 087,4	Sherobod	3 429,8
Bandixon	2 249,8	Sho'rchi	5 513,1
Boysun	3 991,1		
Muzrabot	3 459,7		
Denov	6 050,6		
Jarqo'rg'on	2 798,2		
Qumqo'rg'on	1 926,2		
Qiziriq	4 279,8		
Sariosiyo	1 954,2		

2024-yilning yanvar-iyul oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 165,0 ming. so'mni (2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 106,1 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (10 925,5 ming. so'm), Denov (6 050,6 ming. so'm) va Sho'rchi (5 513,1 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-iyul), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalaridan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	2508,7	117,0
Termiz sh.	191,7	122,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	249,5	123,3
Angor	82,5	103,0
Bandixon	125,9	110,7
Boysun	160,0	128,0
Muzrabot	252,7	125,4
Denov	266,2	112,6
Jarqo'rg'on	138,4	112,3
Qumqo'rg'on	143,2	125,5
Qiziriq	183,6	124,7
Sariosiyo	198,9	123,5
Termiz	56,1	105,4
Uzun	177,0	114,4
Sherobod	80,4	96,8
Sho'rchi	202,6	105,8


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-iyul)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-iyul)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 508,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 117,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 026,6 mlrd. so'mni (119,3 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 112,6 mlrd so'mni tashkil etdi (114,3 %).

2024-yilning yanvar-iyul oyida tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 218,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (605,0 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 605,0 mlrd. so'm  49,7 %	Non va non mahsulotlari 135,8 mlrd. so'm  11,1 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 117,0 mlrd. so'm  9,6 %
Tovuq go'shti 37,0 mlrd. so'm  3,0 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 62,8 mlrd. so'm  5,2 %	Tuxum 40,0 mlrd. so'm  3,3 %
Ziravorlar 26,0 mlrd. so'm  2,1 %	Sut va sut mahsulotlari 37,0 mlrd. so'm  3,0 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 16,7 mlrd. so'm  1,4 %
Tuzlamalar 24,6 mlrd. so'm  2,0 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 26,4 mlrd. so'm  2,2 %	Nooziq-ovqat tovarlar 89,7 7,4 %

2024-yilning yanvar-iyul oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 290,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 932,5 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 343,9 mlrd. so'mni, otlar – 10,9 mlrd. so'mni, parrandalar – 3,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 619,9 mlrd. so'm  48,0 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 175,7 mlrd. so'm  13,6 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 136,9 mlrd. so'm  10,6 %
Qo'ylar 290,7 mlrd. so'm  22,5 %	Otlar 10,9 mlrd. so'm  0,8 %	Echkilar 53,2 mlrd. so'm  4,1%
Kurka, o'rdak, g'oz 1,3 mlrd. so'm  0,1 %	Tovuqlar 1,4 mlrd. so'm  0,1 %	Quyionlar 0,6 mlrd. so'm  0,1 %
Qushlar 0 mlrd. so'm  %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 444 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 443 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	301,4	106,2
Termiz sh.	116,3	105,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	7,8	108,8
Angor	9,1	108,1
Bandixon	2,3	102,7
Boysun	6,9	107,7
Muzrabot	6,9	106,8
Denov	48,9	103,2
Jarqo'rg'on	18,0	110,9
Qumqo'rg'on	7,3	108,1
Qiziriq	6,2	110,7
Sariosiyo	15,7	111,9
Termiz	22,4	101,2
Uzun	8,5	108,8
Sherobod	13,2	105,5
Sho'rchi	11,9	114,4

2024-yilning yanvar-iyul oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 301,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	865,1	70,8
Termiz sh.	275,0	57,5
tumanlar:		
Oltinsoy	3,5	121,9
Angor	18,0	114,7
Bandixon	0,4	125,3
Boysun	1,9	111,2
Muzrabot	0,9	111,4
Denov	457,5	72,2
Jarqo'rg'on	53,2	122,5
Qumqo'rg'on	2,4	114,7
Qiziriq	3,2	125,3
Sariosiyo	8,1	125,3
Termiz	14,2	121,4
Uzun	1,1	125,3
Sherobod	4,1	123,1
Sho'rchi	21,7	119,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (457,5 mlrd. so'm) va Termiz shahri (275,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-iyul oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 865,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,2 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 221,3 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 51,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 643,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 86,7 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 371,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

10,6 %

358,5 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

89,4 %

3 013,1 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 3 013,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 112,7 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 89,4 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 027 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 008 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Oltinsoy (4088,6 %) , Angor (265,1 %) tumanlarida va Jarqo'rg'on (128,69 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	3371,6	105,5
Termiz sh.	794,8	107,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	131,1	160,3
Angor	82,0	112,9
Bandixon	254,9	119,0
Boysun	14,7	109,0
Muzrabot	143,7	109,9
Denov	1094,4	113,3
Jarqo'rg'on	98,8	110,8
Qumqo'rg'on	133,7	66,1
Qiziriq	25,6	107,6
Sariosiyo	68,5	109,7
Termiz	180,8	111,9
Uzun	36,9	59,6
Sherobod	139,4	110,0
Sho'rchi	172,4	68,8